

*Davletyorova Dilafroz Davronbek qizi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
“Geografiya” yo’nalishi 2-bosqich talabasi  
O’zbekiston*

## MIGRATSIYA JARAYONI VA SABABLARI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada migratsiya tushunchasi, uning asosiy turlari, migratsiya jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablari, migratsyaning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta’siri tahlil qilingan.

*Kalit so’zlar:* migratsiya, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mehnat migratsiyasi, demografik o’zgarishlar, iqtisodiy omillar.

*Давлетёрова Диляфруз Давронбек кизи  
Студент 2-го курса направления «География»  
Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Беруни  
Узбекистан*

### ПРОЦЕСС МИГРАЦИИ И ЕГО ПРИЧИНЫ

*Абстрактный.* В статье анализируются понятие миграции, ее основные виды, социально-экономические и политические причины миграционного процесса, а также положительное и отрицательное влияние миграции на развитие общества.

*Ключевые слова:* миграция, внутренняя миграция, внешняя миграция, трудовая миграция, демографические изменения, экономические факторы.

*Davletyorova Dilafroz Davronbek qizi  
2nd stage student of Geography of Urgench State University  
named after Abu Rayhan Beruni  
Uzbekistan*

### MIGRATION PROCESS AND REASONS

*Abstract.* This article analyzes the concept of migration, its main types, socio-economic and political causes of the migration process, positive and negative effects of migration on the development of society.

*Key words:* migration, internal migration, external migration, labor migration, demographic changes, economic factors.

Migratsiya insoniyat tarixida muhim o‘rin tutuvchi jarayonlardan biridir. Harakatlanish va yashash joyini o‘zgartirish insonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta rol o‘ynaydi. XXI asrda migratsiya jarayoni global tus olib, mamlakatlarning

iqtisodiy, ijtimoiy va demografik tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada migratsyaning mohiyati, asosiy sabablari va uning jamiyatga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

**Migratsiya tushunchasi va uning turlari.** Migratsiya - bu shaxslar yoki aholi guruhlarining doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini o'zgartirishi jarayoni. Migratsiya turlari quyidagicha tasniflanadi:

- **Ichki migratsiya** - mamlakat hududida bir joydan boshqa joyga ko'chish.
- **Tashqi migratsiya** - davlat chegaralaridan tashqariga chiqib yoki boshqa mamlakatdan kelib joylashish.
- **Ixtiyoriy migratsiya** - iqtisodiy, ijtimoiy yoki shaxsiy sabablarga ko'ra amalga oshiriladigan ko'chish.
- **Majbuliy migratsiya** - urushlar, tabiiy ofatlar yoki siyosiy ta'qiblar sababli yuzaga keladigan ko'chish.

**Migratsiya jarayonining asosiy sabablari.** Mehnat migratsiyasining sabablari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy omillarga bog'liq bo'lib, ular quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- 1. Iqtisodiy sabablari. Ishsizlik, past daromad va bu ko'pgina davlatlarda ish joylarining yetishmasligi odamlarni xorijda ish izlashga undaydi va odamlar moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun yuqori maosh taklif qiluvchi mamlakatlarga ketadilar. Kambag'al davlatlardan iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga borishadi.
- 2. Ijtimoiy sabablari. Yashash sharoitlarini yaxshilash orqali sog'liqni saqlash, ta'lif va boshqa ijtimoiy xizmatlarning yuqori darajada bo'lishi mehnat migrantlarini jalb qiladi. Migrantlar oilasini moddiy jihatdan ta'minlash uchun chet elda ishlashadi.
- 3. Siyosiy sabablari. Ayrim mamlakatlar chet el ishchilariga qulay ish sharoitlarini yaratadi va vizalarni soddallashtiradi.
- 4. Demografik sabablari. Aholi zichligi va cheklangan resurslar tufayli odamlar boshqa davlatlarga va rivojlangan mamlakatlar demografik qarish

sababli yangi ishchilarni jalb qilishga muhtojligi sababidan mehnat qilishga chiqib ketadi.

- 5. Shaxsiy sabablari. Oliy ma'lumotli va malakali mutaxassislar o'z kasbiy ko'nikmalarini qadrlaydigan mamlakatlarga boradilar. Ayrim shaxslar shunchaki yangi madaniyat va tajribalarni o'rganish maqsadida ko'chib ketadi.
- 6. Global tendensiyalar. Xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari mehnat migratsiyasini osonlashtiradi. Xalqaro aloqa va transport tizimlarining rivojlanishi migratsiya jarayonlarini tezlashtiradi [1].

**Migratsiyaning ijobiy va salbiy ta'siri.** Migratsiya natijasida mamlakatlar iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, demografik muammolar hal etilishi mumkin. Shu bilan birga, aholi tarkibidagi o'zgarishlar ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ham ehtimoldan xoli emas. Ijobiy jihatlarga quyidagilar kiradi:

- Ishchi kuchining oqimi, tajriba almashinuvi.
- Migrantlar jo'natuvchi mamlakatlarga pul o'tkazmalari orqali iqtisodiy yordam ko'rsatishi.
- Yangi madaniyatlar va innovatsiyalarni olib kelishi. Salbiy jihatlar esa quyidagilar:
- Mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi, ishsizlik darajasining oshishi.
- Madaniy va til to'qnashuvlari, integratsiya muammolari.
- Aqliy salohiyatning boshqa davlatlarga oqib ketishi ("Brain drain").

Mehnat migrantlarining hududiy taqsimotini o'rganishda muhim jihatlardan biri – aholi mamlakat bo'ylab notekis joylashganidir. Aholisi ko'p, tug'ilish darjasini yuqori va zich joylashgan hududlarda migratsiya jarayonlari ancha faollashadi. K. Kalanovning ta'kidlashicha, O'zbekiston fuqarolarining uzoq xorijiy mamlakatlarga tashqi migratsiyasi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- Rasmiy doimiy emigratsiya;

- Rasmiy vaqtinchalik emigratsiya;
- Norasmiy emigratsiya;
- Ekologik emigratsiya;
- Intellektual immigratsiya.

Shuningdek, O‘zbekiston fuqarolarining MDH davlatlariga bo‘lgan migratsiyasi ham turli ko‘rinishlarga ega: gasterbayterlar va yollanma ishchilar migratsiyasi, doimiy rasmiy migratsiya (fuqarolik olish), vaqtinchalik etnik migratsiya (etnik vatanda ishslash) va intellektual migratsiya (olimlar, tadqiqotchilar, talabalar va boshqalar [2].

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, chet mamlakatlarga chiqayotgan fuqarolarimizning asosiy qismi moddiy daromad orttirish maqsadida yollanma ishchi sifatida ishslashga ketmoqda. Qolgan qismi esa bilim va tajribasini oshirish uchun xorijga chiqmoqda, rusiyabon aholining bir qismi esa tarixiy vataniga doimiy yashash uchun ko‘chmoqda.

Respublikamizda 2024 yilda ko‘chib ketganlar soni 250,4 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 46,8 ming kishiga ko‘paygan. 2024 yilda ko‘chib ketganlar yosh guruhlari bo‘yicha mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 12,0 foiz, mehnatga layoqatli yoshdagilar 80,0 foiz, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasi 8,0 foizni tashkil etadi.

### **1-jadval**

#### **Xorijiy davlatlarga ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi (2024-y.)**

<b>Davlatlar nomi</b>	<b>Ko‘chib ketgan aholi soni (kishi hisobida)</b>	<b>Ko‘chib ketgan aholi foiz hisobida</b>
Qozog‘iston	8792	81,1
Rossiya	1601	14,8
Janubiy Koreya	96	0,9
Qirg‘iziston	73	0,7
Turkmaniston	39	0,4

O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning 81,1 foizi Qozog‘iston Respublikasiga, 14,8 foizi Rossiya Federatsiyasiga, 0,9 foizi Janubiy Koreyaga, 0,7 foizi Qirg‘iz Respublikasiga, 0,4 foizi Turkmaniston Respublikasiga, 2,1 foizi boshqa davlatlarga to‘g‘ri keladi.

Respublikamiz ma’muriy-birliklarida ko‘chib ketganlarning eng yuqori ulushi Toshkent shahrida 28,6 %, Toshkent viloyatida – 11,5 %, Qashqadaryo viloyatida – 7,1 %, Samarqand viloyatida – 6,5 %, Farg‘ona viloyatida – 6,1 % ga teng bo‘lgan.

Migratsiya jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, uning oqibatlari har tomonlama baholanishi zarur. Davlatlar migratsiya siyosatini shakllantirishda iqtisodiy manfaatlar bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham e’tiborga olishi kerak. To‘g‘ri boshqarilgan migratsiya jarayoni mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. KOMIROVA, Nilufar, Rukhsora T. HUDAYBERGANOVA, Isabek B. MURTAZAEV, Hidoyathon O. ABDINAZAROVA, & Zafarjon H. MADAMINOV. " Economic and Geographic Problems of Improvement of Industrial Sectors and Local Structure of Uzbekistan." Journal of Advanced Research in Law and Economics [Online], 10.6 (2019): 1916-1928. Web. 19 Feb. 2025
2. Latipov, N., Komilova, N., Makhmudov, B., Berdiev, K., Moslemzadeh, M., Chulliyev, S., Murtazayev, I., & Hamroyev, M. (2024). Econometric modeling and forecasting of environmental conditions of cities and population health problems: Case study of Navoi and Zarafshan cities. Macedonian Journal of Ecology and Environment, 26(2), 169–181. <https://doi.org/10.59194/MJEE242621691>
3. Anthropogenic transformation of oasis landscapes in Khorezm Province, Uzbekistan: A geoecological analysis. Abror Khaitbaev, Kuvondik Yarashev, Yunus Karimov, Maqsud Nazarov. E3S Web Conf. 497 02043 (2024). DOI: 10.1051/e3sconf/202449702043

4. Khamroev M.O., Khodjaeva G.A. Scientific and theoretical issues of urboekological research.Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №3/2  
ISSN 2181-9203